

ZAKI VALIDIYNING TURKISTON ILMIY SAFARI(1913-1914)GA OID TADQIQOTLARI

Xujayev Muminjon Isoxonovich

Falsafa doktori (PhD) O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi Ijtimoiy-
gumanitar fanlar kafedrasida katta o‘qituvchisi
mumin_81@mail.ru A.Qodiriy 11, Toshkent, 100011, O‘zbekiston

ANNOTATSIYA

Maqolada O‘rta Osiyo tarixi, falsafasi, madaniyati, ma‘naviyati, sharqshunoslik, islomshunoslik, jadidchilik, turkiy tilshunosligi haqida ulkan meros qoldirgan olim va faylasuf olim Ahmad Zaki Validiy To‘g‘onning hayoti va ijodini o‘rganar ekanmiz olimning tarix, falsafa, islom ilmida nihoyatda ulkan meros qoldirganligini guvohi bo‘lamiz.

Ahmad Zaki Validiy To‘g‘onning ilmiy merosi 400 dan ortiq ilmiy tadqiqotni tashkil etadi. Professor Ahmad Zaki Validiy To‘g‘on o‘zining falsafa fanlari doktorligi diplomi mavzusi “Ibn Fadlanning “Sayohatnomasi””sida turkiy xalqlarning ma‘naviy, tarixiy, diniy-falsafiy merosini o‘rganishda o‘ziga xos konseptual-metodologik asosda tadqiq etilishini alohida qayd qilgan.

Shuningdek maqolada olimning Turkistonda olib borgan arxeografik tadqiqotlari faoliyati haqida sharqshunos olimlarning ishlarida qayd etishadi. Bundan tashqari, olimning yaqin Sharq va O‘rta Osiyo xalqlari ma‘naviyati haqida olib borgan ilmiy safarlari (1913-1914) va Turkiston tarixi metodologiyasi va etnografiyasi haqida tadqiqot olib borganligi to‘g‘risida, uning sharqshunoslik, tarixshunoslik va islomshunoslik sohasidagi merosini o‘rganishda asarlari va ilmiy maqolalarida bayon qilingan.

Zaki Validiy Hindlarning Mohanjodaro madaniyatini diniy-falsafiy tahlilida O‘rta Osiyo turkiylari tarixida turmush tarzidagi uchraydigan o‘xshashliklari aslida turkiylar va mo‘g‘ullarga qarashli bo‘lganligi tadqiqi keltirilgan. Turkiy va mo‘g‘ullarning davlat tashkiloti, Turkiston shahri viloyatlari, shomonlarning falsafiy, moddiy-ma‘naviy olam haqidagi tasavvurlari bunga yaqqol dalilligi, garchi ularning kosmogoniyalari boshqa madaniyatlar ta‘siriga uchragan bo‘lsa-da, xususan, hukmdorni oq kigizga 4 burchidan ushlab ko‘tarish, o‘lkani bo‘lib idora qilish, kigiz burchidan ushlagan qabila biylariga davlat ishlarida suyanish, shaharlarning to‘rt burchakli ekanligi, to‘rt darvozaga olib boruvchi to‘rtta shohko‘chaning shahar bo‘ylab cho‘zilganligi ham tadqiq etilgan.

Turkiston tarixi to'g'risida yozgan asarlarida Zaki Validiy nafaqat tarixchi, balki sharqshunos olim sifatida yaqqol namoyon bo'ladi. Uning o'z ilmiy izlanishlari asosida turkiy xalqlarning jahon sivilizatsiyasiga ko'rsatgan ta'sirini ilmiy-amaliy jihatdan isbotlashga harakat qiladi. Validiyning islomshunos, sharqshunos, manbashunos, tarixchi, turkiyshunos bo'lib yetishishida uning Turkistonga 1913-1914 yillardagi ilmiy safari katta ahamiyat kasb etgan.

O'zbekiston, xususan turkiy xalqlar boy ma'naviy va madaniy meroslaridan bo'lmish diniy-falsafiy qarashlari asosida bugungi avlod ongida qadimiy milliy ma'naviyatimiz va madaniyatimizga doir xorijdagi asarlarni olib kelish va tadqiq qaratilgan.

***Kalit so'zlar:** Turkiston, turkiy, tadqiqot, ma'naviyat, O'rta Osiyo, milliy, madaniyat, tarix, hudud, xalq, sayyohat, xorij, sharq.*

АННОТАЦИЯ

В статье, как мы изучаем жизнь и деятельность Ахмада Заки Валиди Тогана – ученого и философа, оставившего большое наследие в истории, философии, культуре, духовности, востоковедении, исламоведении, джадидизме и тюркском языкознании Центральной Азии.

Научное наследие плотины Ахмад Заки Валиди насчитывает более 400 научных исследований. Профессор Ахмад Заки Валиди Тоган в своей диссертации на соискание степени доктора философии «Путешествие» Ибн Фадлана отметил, что изучение духовного, исторического, религиозного и философского наследия тюркских народов изучается на определенной концептуальной и методологической основе.

В статье также упоминается деятельность ученого по археологическим исследованиям в Туркестане в трудах востоковедов. Кроме того, научные путешествия ученого о духовности народов Ближнего Востока и Средней Азии (1913-1914) и его исследования методологии и этнографии истории Туркестана описаны в его работах и научных статьях, посвященных изучению его наследия в области востоковедения, историографии и исламоведения.

В своем религиозно-философском анализе Заки Валиди культуры индусов Моханджодаро цитируется исследование сходства образа жизни, встречающегося в истории центральноазиатских тюрков, которые на самом деле принадлежали туркам и монголам. Государственное устройство тюрков и монголов, провинции города Туркестан, представления шаманов о философском, материальном и духовном мире - яркое свидетельство этого, хотя на их космогонию оказали влияние другие культуры. опора племенных

танцоров на дежурство в государственных делах, тот факт, что города были четырехугольными, и что четыре ветви, ведущие к четырем воротам, тянулись через город.

В своих трудах по истории Туркестана Заки Валиди явно рассматривается не только как историк, но и как востоковед. На основе собственных научных исследований он пытается научно и практически доказать влияние тюркских народов на мировую цивилизацию. Научная поездка Валиди в Туркестан в 1913-1914 годах сыграла важную роль в его становлении как исламского ученого, востоковеда, источниковеда, историка и тюрколога.

Основываясь на религиозных и философских взглядах Узбекистана, особенно на богатом духовном и культурном наследии тюркских народов, умы сегодняшнего поколения сосредоточены на привнесении и изучении зарубежных работ о нашей древней национальной духовности и культуре.

Ключевые слова: *Туркестан, тюркский, исследование, духовность, Средняя Азия, национальная, культура, история, регион, люди, путешествия, зарубежное, восточное.*

ABSTRACT

In the article, how we study the life and work of Ahmad Zaki Walidi Togan, a scientist and philosopher who left a great legacy in the history, philosophy, culture, spirituality, oriental studies, Islamic studies, Jadidism and Turkic linguistics of Central Asia.

The scientific heritage of the Ahmad Zaki Walidi Dam includes over 400 scientific studies. Professor Ahmad Zaki Walidi Togan in his dissertation for the degree of Doctor of Philosophy «Travel» by Ibn Fadlan noted that the study of the spiritual, historical, religious and philosophical heritage of the Turkic peoples is studied on a certain conceptual and methodological basis.

The article also mentions the activities of the scientist on archaeological research in Turkestan in the works of orientalists. In addition, the scientist's scientific travels about the spirituality of the peoples of the Middle East and Central Asia (1913-1914) and his research on the methodology and ethnography of the history of Turkestan are described in his works and scientific articles devoted to the study of his heritage in the field of oriental studies, historiography and Islamic studies.

In his religious-philosophical analysis, Zaki Walidi of the culture of the Mohanjodaro Hindus, he cites a study of the similarity of the way of life found in the

history of the Central Asian Turks, who actually belonged to the Turks and Mongols. The state structure of the Turks and Mongols, the province of the city of Turkestan, the ideas of shamans about the philosophical, material and spiritual world are a vivid evidence of this, although other cultures influenced their cosmogony. the reliance of tribal dancers on vigil in public affairs, the fact that the cities were quadrangular and that four branches leading to four gates stretched through the city.

In his writings on the history of Turkestan, Zaki Validi is clearly viewed not only as a historian, but also as an orientalist. On the basis of his own scientific research, he tries to scientifically and practically prove the influence of the Turkic peoples on world civilization. Validi's scientific trip to Turkestan in 1913-1914 played an important role in his formation as an Islamic scholar, orientalist, source expert, historian and Turkologist.

Based on the religious and philosophical views of Uzbekistan, especially on the rich spiritual and cultural heritage of the Turkic peoples, the minds of today's generation are focused on introducing and studying foreign works about our ancient national spirituality and culture.

Keywords: *Turkestan, Turkic, research, spirituality, Central Asia, national, culture, history, region, people, travel, foreign, eastern. Annotatsiya*

KIRISH

O'zbekiston hududida ilmiy izlanishlar olib borgan xorijlik tadqiqotchilar orasida qardosh turkiy xalqlar vakili, boshqird olimi Ahmad Zaki Validiy To'g'on alohida o'rin tutadi. 1890 yil 10 dekabrda tavallud topgan Ahmad Zaki Validiy Ufa va Qozondagi "Usmoniya", "Shahobiddin Marjoniy", "Qosimiya" madrasalarida tahsil oladi [1]. Uning ilk maqolalari jadid ma'rifatparvarligi g'oyalari hamohang tarzda o'sha davrning islohot g'oyalari bilan sug'orilgan "Tarjimon", "Sho'ro", "Maktab", "Vaqt", "Suyumbeka", "Yulduz", "Turmush" kabi jurnal va gazetalarida muntazam e'lon qilib borilgan.

Zaki Validiy arab, fors, rus tillarini yaxshi bilgan, Sharq tarixi va adabiyotiga qiziqqan, rus sharqshunos olimlarining asarlari bilan yaxshi tanish bo'lgan [2]. Akademik V.V. Bartold Zaki Validiyi Sankt-Peterburg universitetining Sharq tillari fakulteti hamda o'zining tashabbusi bilan tuzilgan Xalqaro O'rta Osiyo tadqiq Komitetida faoliyat yuritishga taklif qilgan. Yevropa davlatlaridagi, xususan, Germaniya, Avstriya, Parij va London kutubxonalaridan islom qo'lyozmalarini qidirib topish va tadqiq etishga jalb etmoqchi bo'lgan. Ammo Birinchi jahon urushining boshlanishi bu rejalarini yuzaga chiqishini to'xtatib qo'ydi"[3].

Shundan soʻng Zakiy Validiy Fargʻona, Samarqand, Buxoro, Toshkent va Sharhrisabz shaharlarida safarda boʻlib, maxalliy qoʻlyozma manbalarni toʻplash va tadqiq etishga kirishadi. Keyinchalik bu faoliyatini Xiva, (1920 yil), Turkmaniston, Eron va Afgʻonistonda (1923 yil) davom ettiradi.

Keyinchalik Zaki Validiy Yevropaning Parij va London (1924), Vengriya (1925 yil), Avstriya (1938) kabi shaharlarida boʻlib kutubxonalarda izlanishlar olib borgan va falsafa, din, tarix, madaniyat, geografiya, etnografiya, iqtisodiyot, toponimika, antropologiya kabi yoʻnalishlardagi asarlarni tadqiq etib, ilmiy dunyoqarashi yanada kengaygan.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Zaki Validiy oʻzining Shahobiddin Marjoniy toʻgʻrisidagi asarida qayd etishicha, oʻsha davrlarda Buxoro madrasalarida 15 ga yaqin kutubxona mavjud boʻlib, ular amir Nasrulloh davrida butunlay yakson qilinib, eʼtibordan chetda qolgan. Samarqandda Marjoniyning ustoz, 1849 yilda vafot etgan qozi Abu-Said Samarqandiyning kutubxonasi oʻz tarixiy mavzusiga koʻra eng boy kutubxona hisoblangan. Uning qayd etishicha, ushbu kutubxonaning bir qismi samarqandlik sharqshunos V.L.Vyatkinning qoʻliga oʻtgan [4].

Zaki Validiy Ashurali Zohiriydan Mahtumquli “Devon”ining eng mukammal nusxasini olishga muvaffaq boʻlgan [5]. Shuningdek, u Yunusjon Dodxoh Muhammedov qoʻlyozma xazinasidagi jami 23 ta nodir qoʻlyozma bilan tanishgan. Ular orasidan Junaydulloh Hoziqning “Kitob fit-tib”, Zayniddin Vosifyning “Badoe’ ul-vaqoe’i”, Mirzo Sang Muhammad Badaxshiyning “Tarixi Badaxshon”, Mirzo Olim Mulla Rahim oʻgʻli Toshkandiyning “Ansob-us-Salotiyin va Tarix-ul-havoqiyyin”, Mullo Ali Qori Qunduziyning “Tavorixi Manzuma”, Hoji Muhammad Hakimjon Toʻra binni Sayyid Maʼsum Xon Toʻraning “Muntahab-ut-Tavorix”, “Tazkirai Bugʻroxoni Turkiy”, Abu-l- Baqoning “Jomi’-ul-Maqomot”, Mullo Muhammad Sodiq Iskandariyning “Majmu’ati muhaqqiqiyin”, “Tarixi Banokotiy”, Alisher Navoiy “Xamsa”siga kiruvchi “Majolisun-nafois”, “Xamsat ul-Mutahayyirin”, “Devoni Amir Navoi”, “Devoni Mavlono Lutfiy”, “Devonai Mashrab” qoʻlyozma asarlari bilan tanishib, ularni ularni tavsiflashga va tadqiq etishga muvaffaq boʻlgan.

Zaki Validiy Qoʻqonda qozi Mahmud Mahdumdan “Muntahab ut-tavorix”ning 2 jildlik qadimiy va toʻliq nusxasi, “Ajoyib ut-taboqot” asarlari, qoʻlyozmalari haqida maʼlumot oladi. Shuningdek, Yunusjon Dodxoh qoʻlidagi “Devonai Mashrab” oʻsha davrda Toshkentda bosilgan nusxasidan ikki baravar katta ekanligini va har bir qoʻlyozmaning mazmuni,

muallifi, uning tuzilgan joyi, qo'lyozmaning nashrlari, boshqa kataloglarda mavjud yoki yo'qligi, sohiblari haqida keng ma'lumot beradi.

Shuningdek Yoqub Hoji Yah'yo xonadonida "Devonai Mas'ud" va "Muntahab ut-tavorix" Ishoqxon To'rada esa Abu-s-Saodat Abdulloh binni Alining "Mirot ul-janon filma'rifat ul-inson" nomli asarining to'liq va nodir nusxasi bilan tanishgan. Abdusalim Boy Muhammadjonov, Sa'dullo Abdullo Sirojiddin Qosim tomonidan "Zubdat ut-tavorix"ning 1550 yilda yozilgan qo'lyozmasini ham ko'rib tavsiflagan. Validiy "Ko'rxona" masjidining imom xatibi Mullo Rojjiyda Mahmud Valining "Bahr ul-asror fi Manoqib al-ahyor", Muhammad Hoshim bin Qosimning "Samot al-Quds min hadoiq ul-uns" (Ali Safiyning "Rashaxot" asarining davomi) qo'lyozmasining fasllari va boblarining to'liq tavsifini beradi.

Shuningdek, Zaki Validiy Oxunjon Hoji qo'lidagi Majidiyning "Ziynat ul-majolis", Orif Hoji qo'lidagi marg'ilonlik Mirzo Aziz Muhammad Rizoning "Tarixi Aziziy" kabi qo'lyozmalar bilan tanishgan va mazmunini bayon qilgan.

Olim Andijonda marhum xalq sudyasi Otabek qo'lyozma kutubxonasida bo'lib, undagi Muhammad ibn Yahyoning "Suvar ul-aqolim", Qazvniyning "Ajoyib ul-maxluqot", shuningdek, boshqa bir muallifning "Mirot ul-futuh", Otabek Qozining o'zi yozgan "Mufassal tarixi Farg'ona" kabi asarlar qo'lyozmasini ta'riflagan.

O'sh shahrida Zaki Validiy Mirzo Fozil Bek qo'lida "Tarixi Shoxruhiy", "Temurnoma", "Zafarnomai Hotifiy", Mirzo Sang Muhammad Badaxshiyning "Tarixi Badaxshon" qo'lyozmalari borligi haqida yozadi.

Shuningdek, Zaki Validiy Mullo Quadratullo Toirboyevning qo'lyozma xazinasini bilan tanishib, undagi 7 ta qo'lyozmani tavsiflagan. Ular orasida Mu'in al-Juvayniyning "Nigoriston", Muhammad Olim as-Sodiqiy al-Uluviyning "Lamohot" asari, Ziyo Naxshabiyning "Chihl nomus", Muhammad Tohir ibn Abu-l-Qosimning "Ajoyib ut-taqobot", Muhammad bin Mahmud al-Amuliyning "Nafoyis ul-funun fi a'roid-ul-u'yun", Shoir Mushrifning "Risoi askariya" kabi qo'lyozmalar tavsifini beradi. Mullo Quadratulloda esa fol ochish va astronomiyaga oid qo'lyozmalarining anchagina boy to'plami mavjud bo'lganligini qayd etgan.

Zaki Validiy "Turkiy qabilalarning xalq adabiyoti namunalari" va "Qutadg'u bilig"ni o'qib ularni qiyosiy o'rganish natijasida olim "Bizning qo'shiqlarimiz haqida", "Sho'ro" jurnalida maqola yozadi. Bu maqola professor N.F.Katanov tomonidan yuqori bahoga sazovor bo'ladi"[6].

Zaki Validiy tomonidan topilgan yana bir nodir qo'lyozma Mirzo Fozil Bek qarindoshlaridan birining qo'lida saqlanib qolgan Abdurazzoq as-Samarqandiyning "Matla' us-sa'dayn va majma' ul-bahrayn" qo'lyozmasi bo'lib, uni ham tavsiflashga muvaffaq bo'lgan.

Namanganda u mashhur Yusuf Xon To‘ra qo‘llarida Hamidulloh Mustavfiy Qazviniyning “Tarixi Guzida”sining ikki nusxasini, “Tarixi Roqimiy”, “Ravzat us-Safo”, Mullo Mir Muhammad Avaz o‘g‘lining “Manoqibi Mavloni Ishaq”, “Manoqibi Mavloni” qo‘lyozmalari bilan tanishgan.

Shuningdek, “Namanganda Muhammad Xoja-Eshon Lolayarish qo‘lyozma xazinasidan keyinchalik fanda “Qutadg‘u bilig”ning “Namangan nusxasi” nomi bilan mashhur bo‘lgan Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” qo‘lyozmasi bilan tanishgan va tavsiflab” [7], fanga ma‘lum qilgan. Bu qo‘lyozma hozirda O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar fondida saqlanmoqda.

Turkistondagi ilmiy safari davomida Zaki Validiy Shahrisabzda ham bo‘ladi. Qarshi shahrida u bozorda bir attorning qo‘lida Qur‘onning «Sub‘i» («Haftiyak»), ya‘ni “Ettidan biri”ning turkcha tarjimasini sotib oladi va uni X asrga mansub noyob nusxa ekanligini aniqlaydi. Keyinchalik bu eski Qur‘on tarjimalari haqida ingliz tilida o‘z maqolasini e‘lon qiladi [8] hamda 1951 yilda Sharqshunoslarning Xalqaro kongressida ma‘ruza qiladi [9].

Zaki Validiy Turkistondagi 1913 yilgi ilmiy safarida Toshkentda bo‘lib, bir qancha kutubxonalaridagi qo‘lyozmalar bilan tanishadi. Otasi Ahmadshoh va qo‘shnilari Bekbo‘lat hazratlari topshirig‘i bilan Shayx Xovand Tahur va Xoja Ahror Valiy ziyoratgohlariga boradi, Shayx Xovand Tahurning mufassal manoqibi, fors va turk tillaridagi she‘rlar jamlangan qo‘lyozmani sahhoflardan sotib oladi. Shu orada Buxoro va Samarqandga ham borib, u yerda ham ziyolilar, qo‘lyozma sohiblari, tarix va arxeologiya, etnografiya muxlislari bilan uchrashadi [10].

Uning asarlari bilan tanishgan ziyolilar ijodiga yuqori baho beradilar. Xususan, Abdulhamid Sulaymon o‘g‘li Cho‘lpon Zaki Validiyning asarlarini o‘qigach, unga xat yo‘llab, Andijonga taklif qiladi. Validiy Nazir To‘raqulov bilan Cho‘lponning otasini uyida bo‘ladi [11]. Bu tanishuv keyinchalik Cho‘lpon va Validiyning ma‘rifatparvarlik g‘oyalarini yoyishda hamda siyosiy jarayonlarda yelkama-elka turib, hukumatga qarshi kurashda birlashish yo‘lidagi ilk uchrashuv bo‘lgan edi.

Zaki Validiy 1914 yili Farg‘ona ilmiy safari davomida Qo‘qonda Yunusjon Dodox Muhammadov qo‘lyozma xazinasidagi jami 23 ta nodir qo‘lyozma bilan tanishga muvaffaq bo‘ladi.

Keyinchalik Zaki Validiy Nikolay Katanov yordamida Londondan o‘rta asr tarixchilari, xususan, Mirxond, Xondamir qo‘lyozma asarlarining nusxalarini, shuningdek Zaxiriddin Muhammad Boburning xotiralari nusxalarini ham olishga muvaffaq bo‘ladi [12].

Zaki Validiy o‘z davrining faol siyosatchisi va Boshqirdiston hukumatining raisi, boshqird, o‘zbek, fors, arab, rus, nemis, lotin, turk, ingliz, turkman, qozoq xalqlarining ma’naviy-ruhiy xolatini, hayotini tushuna olgan va tushuntira bilgan siyosatchi ham edi. Turkiy xalqlar, xususan, Boshqirdiston taraqqiyoti va mustaqilligi uchun olib borgan faol harakatlari bolsheviklar hukumati tomonidan keskin qarshiliklarga uchrab, ta’ziyq lar kuchaya borgach, Zaki Validiy o‘n bir yil davom etgan siyosiy faoliyatidan so‘ng, 1925 yilda mamlakatni tark etdi va Istanbulga ketdi, Bu yerda u o‘z faoliyatini butunlay ilm-fan va ta’limga bag‘ishladi. 1930 yilda Vena universitetiga o‘qishga kirib, 1935 yilda “Real Gymnasium” hamda doktorlik dissertatsiyasini himoya qiladi. Islom ilmlari bo‘yicha falsafa fanlari doktori darajasini olib, Bonn universitetining islom ilmlari faxriy professori darajasiga erishdi.

Shu tariqa Ahmad Zaki Validiy keyinchalik o‘z hayoti va faoliyatini xorijda – Turkiyada davom ettirdi, turk, nemis, fransuz, ingliz, arab, venger, rus va boshqird tillarida to‘rt yuzdan ortiq ilmiy ish e‘lon qildi. Xorijda uning “Bugungi turk eli va yaqin tarixi” [13] (Istanbul, 1942-1947) va “Xotiralar” [14] (Istanbul, 1969) kabi mashhur asarlari chop etildi va butun turk dunyosiga tanildi.

Zaki Validiy o‘zining ko‘p yillik ilmiy safari davomida Farg‘ona, Samarqand, Buxoro, Toshkent, Sharhrisabz, Xiva, Turkmaniston, Eron, Afg‘onistonda bo‘lib, bu yerlarda yashovchi xalqlar to‘g‘risida qiziqarli ma’lumotlar va manbalarni aniqlab, aynan shu asarlarida ilmiy muomilaga kiritishga muvaffaq bo‘ldi.

Uning “Xotiralar”, “Tarixiy tadqiqotlar usuli”, “Bugungi Turkiston va uning yaqin tarixi” asarlari turkiy xalqlar dini (islom dini), falsafasi, tarixi, urf-odatlar, qadriyatlar haqida juda boy manbalarni o‘z ichiga olganligi bilan ajralib turadi. Xususan, “Bugungi Turkiston va uning yaqin tarixi” nomli asarining birinchi bobi turkiy xalqlar tarixiga bag‘ishlangan bo‘lib, Kaspiy dengizidan Oltoy, Olatog‘, Tyan-shan tog‘larigacha cho‘zilgan yerlarni qamrab olgan. Zaki Validiy Markaziy Osiyo tarixining o‘sha davrda eng kam o‘rganilgan XV asr Temuriylar davridan boshlab, (Temuriylar davriga oid 30 dan ortiq asarlar yozgan) XX asr birinchi yarmigacha bo‘lgan davr tarixiga alohida e‘tibor qaratib, 400 dan ortiq asarlar yaratdi. Bu davrda yozilgan barcha asarlar, qo‘lyozmalar bilan tanishib, tahlil qilishga muvaffaq bo‘ldi.

Zaki Validiy: “Hindlarning Mohanjodaro madaniyatini diniy-falsafiy tahlilida O‘rta Osiyo turkiylari tarixida uchragan o‘xshashliklari aslida turkiylar va mo‘g‘ullarga qarashli bo‘lgan deydi. Turkiy va mo‘g‘ullarning davlat tashkiloti, Turkiston shahri viloyatlari, shomonlarning falsafiy, moddiy-ma’naviy olam haqidagi tasavvurlari bunga yaqqol dalilligi, garchi ularning kosmogoniyalari boshqa

madaniyatlar ta'siriga uchragan bo'lsa-da, xususan, hukmdorni oq kigizga 4 burchidan ushlab ko'tarish, o'lkani bo'lib idora qilish, kigiz burchidan ushlagan qabila biylariga davlat ishlarida suyanish, shaharlarning to'rt burchakli ekanligi, to'rt darvozaga olib boruvchi to'rtta shohko'chaning shahar bo'ylab cho'zilgan" [15], ekanligini ta'kidlaydi.

Zaki Validiyning ilmiy merosida diniy falsafa, sharqshunoslik, tarix, madaniyat, geografiya, etnografiya, iqtisodiyot, toponimika, antropologiyaga oid ma'lumotlar, qarashlar uyg'unlashib ketgan edi. Uning asarlarining yo'nalishi, mavzusi rang barang, manbalari esa juda boy hamda ko'p tillarda bitilganligi uning bilimlari juda keng, qiziqishlari serqirra bo'lganligidan dalolat beradi. Bunda Amir Temur nasliga oid tadqiqotlar, Shoxruh Mirzo, Mirzo Ulug'bek, Zahiriddin Muhammad Bobur, Boysunqur Mirzo kabi Temuriylar tarixiga oid tadqiqotlari va Farg'ona vodiysidagi ilmiy sayohatiga oid 80 dan ortiq, Buxoro ilmiy sayohati davomida 40 dan ortiq manbalarning tahlilini o'z asar va maqolalari batafsil yoritadi [16].

Uning falsafiy, diniy, tarixiy, madaniy va boshqa sohalarga xilma-xil ma'lumotlar manbai sifatida qiziqib qarashi masalaning bir jihati bo'lsa, ikkinchi jihati olimning o'ziga xos dunyoqarashi, fikrlash doirasi, voqea va hodisalarga munosabati, urf-odatlar va qadriyatlarni baholay olishi Zakiy Validiyning teran fikrli faylasufligidan dalolat edi.

Usmoniylar davlatida yashab, ijod qilgan Zaki Validiyning yirik asarlari shu mamlakatda usmoniy turkchada chop etildi va butun turkiy olamda mashhur bo'ldi. Ammo uning ijodi sovet davriga to'g'ri kelganligi bois xorijiy tadqiqotlarga qattiq senzura qo'ygan hukmron mafkura nazorati ularni O'zbekistonga yetib kelishiga yo'l bermadi. Faqatgina mustaqillik yillarida bu asarlar o'zbek tilida nashrdan chiqdi va jamoatchilik tomonidan juda katta qiziqish bilan kutib olindi. Mazkur asarlarda keltirilgan ma'lumotlar ayniqsa 1917-1924 yillarda sodir bo'lgan siyosiy jarayonlarga oydinlik kiritishda va ilgari hech qaerda qayd etilmagan faktlarni tiklashga xizmat qildi. Zaki Validiyning ilmiy merosi, asarlarining manbaviy ahamiyati haqida bir qancha ilmiy ishlar amalga oshirildi [17].

XULOSA

Olim xuddi o'zidan oldin o'tgan sayyoh olimlar kabi o'sha davrda arzimasi bo'lib ko'ringan voqea yoki ilmiy topilmalar va hodisalarga nihoyatda sinchkovlik hamda e'tibor bilan qaratib, ularni tahlil qiladi. Shu bois Ahmad Zaki Validiy bizgacha yetib kelgan ma'lumotlari tafsilotlarga boyligi va izohlari bilan alohida qimmatga ega. Bu asarlarda mintaqada kechgan ijtimoiy-Turkistonda kechgan siyosiy

jarayonlar, ularga ta'sir etgan omillar, bu jarayonlarda tarixiy shaxslarning o'rni, boy ma'naviy va madaniy meros, intellektual hayot haqida juda ko'p qimmatli ma'lumotlar o'rin olgan.

REFERENCES

1. Юлдашбаев А. Ватандаш. Заки Валиди как политик, ученый и патриот. // 2009. № 9.
2. Абдурахмонов М., А.Зохийдий, А.З.Валидий Тўғоннинг Туркистонга илмий сафари. (1913-1914 йиллар) – Тошкент.: Фан. 1997. 75 б.
3. ЦГИА. РБ. Ф.Р-4947., оп. 1 д. 2633.л.1, 2. (фонд А.З.Валидова).
4. Валиди А.З. «Диван» Махтумкули... // Шуро. Оренбург. 1913. №12. С.357-360. №13. – С. 393-395-524.
5. Протокол Общего годовичного собрания от 18 марта 1913 года // Известия Общества археологии, истории и этнографии. – Казань, 1914. – С.14.
6. Prof. Zeki Velidi Togan. «Dîvân-I Lugât üt-Türk»ün telif senesi hakkında (О дате создания «Дивану люгат ит-тюрк»)// Atsiz Mecmua.- Istanbul: 1932. - № 16. – С.77-78.
7. Togan Z.V. Turkish Qur'an Translation (Куръоннинг туркча таржимаси) // Islam Tedkikleri Enstitusu Dergisi. 1964. S. 19; Togan A. Zeki Velidi Kur'an ve Türkler. Istanbul, 1971. S. 19-20.)
8. Валидий А.З. “Хотиралар: Туркистонда мустақиллик ва озодлик курашлари тарихи.(Мухаммаджон Абдурахмонов таржимаси) – Т.: “Истиқлол нури” 2014. – Б.119.
9. Абдурахмонов М., А.Зохийдий, А.З.Валидий Тўғоннинг Туркистонга илмий сафари. (1913-1914 йиллар) – Тошкент.: Фан. 1997. 26 б.
10. Абдурахманов М. Научная деятельность А.З.Валидова в Туркестане – Ташкент: «Фан», 2004. 37 с.
11. Иванов С.Н. Николай Федорович Катанов (очерк жизни и деятельности). Изд-е 2-е. – Москва.: Наука, 1973. 34-37 с.
12. Būgünki Türkili (Türkistan) ve yakin tarihi. Istanbul. Cilt 1: Batə ve Kuzey Türkistan. XII, 696 s., 2 harita, 1 var. ilave. - (Türkili (Türkistan) Bilik. №2).
13. Prof. Zeki Velidi Togan. Hatiralar ... – Ankara: 1999, § 60. S.106.
14. Prof. Zeki Velidi Togan. Eski Türk ve Mogollarin haritalari ve haritaciligi meselesine dair notlar // Kopuz. – Istanbul. 1966. Sayi 5. S.164-169, 1 harita.
15. Исследование по генеалогии эмира Тимура // Маджлис-и Армаган- Ильми. Проф. Мухаммед Шафи Presentatsion. Volume. Lahor. 1966. С.106-113; Восточные рукописи в Ферганской области // Записки Восточного Отделения

Императорского Русского Археологического Общества 1916. Пг. Т.22. С.303-320; Некоторые данные по истории Ферганы XVIII-го столетия // Протоколы заседаний и сообщения членов Туркестанского кружка и любителей археологии. Ташкент. 1916. 20. Вып.2. С.68-118, О собраниях рукописей в Бухарском ханстве: (Отчет о командировке) // Записки Восточного Отделения Императорского Русского Археологического Общества. 1916. Пг. Т 23. С.246-262; Валидов А.З. Бизнинг рухоний бойлигимиз (Наше духовное богатство). // Юрт. –Коканд: 1917. -№1; Turkistan iktisadiyatinda «yerli» ve «Rus» noktai nazarlari ve «Aris – Simi hati» // Yeni Turkistan. 1927. Sayi 4. S. 16-21, Turkistan meselesi // Yeni Turkistan. 1927. Sayi 1. S.2-8, Turkistan ve Edil havzasimn medeni munasebetleri tarihinden (Туркистон ва Волга ҳавзалари маданиятлари тарихидан) // Yeni Turkistan. 1927. Sayi 2-3. S.26-30; Horezm'de yazilmis eski Turkge eserler (Хоразмда ёзилган қадимги туркий асарлар) // Turkiyat Mecmuasi. Istanbul. 1928. Cilt 2. S. 316-346; Uber die Sprache und Kultur der alten Chwarezmier (Хоразмликларнинг қадимги тили ва маданияти) // Der VIII. Deutsi Orientalistentag zu Bonn. Bonn. 1936. S.27-30, Tahrn kutuphanelerindeki Hindistan'dan gelen eserlerde Cagatay dili ve Timurlu sanat abideleri (Техрон кутубхоналаридаги чигатой тили намуналари Темурийлар миниатюрасига оид ҳинд кўлёмалари) // Belleten. Ankara. 1960. Cilt 24. Sayi 96. S.441-446; Togan Z. V. Turkish Qur'an Translation (Қуръоннинг туркча таржимаси) // Islam Tedkikleri Enstitusu Dergisi. 1964. S. 19; Togan A. Zeki Velidi Kur'an ve Türkler. Istanbul, 1971. S.

17. Асхад Мухтор. Изчил рух // Халқ сўзи, 1992. 22 март., Қосимов Б. Миллий уйғониш: жасорат, маърифат, фидойилик. – Т.: “Маънавият”. 2002. – Б.380., Қосимов Б. Аҳмад Заки Валидий. Маржон Жумабой. // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. 1992. № 32., Қосимов Б. Туркистоннинг туганмас дарди // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. 1992. № 25., Жўраев Н. Тарих фалсафасининг назарий асослари. –Т.: “Маънавият”, 2008., Абдурахмонов М., А.Зоҳидий, А.З.Валидий Тўғоннинг Туркистонга илмий сафари. (1913-1914 йиллар) – Т.: “Фан”, 1997. – Б.58., Абдурахмонов М. Научная деятельность А.З.Валидова в Туркестане. Диссертация на соискание ученой степени доктора исторических наук. – Т.: 2005. – С.302., Абдурахмонов М., Научная деятельность А.З.Валидова в Туркестане. – Т.: “Фан”, 2004., Абдурахмонов М. А.З.Валиди: поиск истоков историко -духовного наследия Туркестана. Ташкент: “Янги аср авлоди”. 2000., Каримов Б. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 12-жилд. –Т.: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, 2006. –Б.469., Валидий А.З.

“Хотиралар: Туркистонда мустақиллик ва озодлик курашлари тарихи.(Муҳаммаджон Абдурахмонов таржимаси) – Т.: “Истиклол нури” 2014., Абдурахмонов М. А.-З. Валиди: поиск истоков историко- духовного наследия Туркестана. - Ташкент: Янги аср авлоди, 2000. - 104 с., Абдурахмонов М., А.Зохийидий, А.З.Валидий Тўғоннинг Туркистонга илмий сафари. (1913-1914 йиллар) – Тошкент.: Фан. 1997., Абдурахмонов М. Научная деятельность А.З.Валидова в Туркестан – Ташкент: «Фан», 2004., Абдурахмонов М. Об исторической концепции Ахметзаки Валиди / Махаммаджон Абдурахмонов // Ядкяр. - 2001. - № 4. - С. 58-62., Абдурахмонов М. А.-З. Валиди об эволюции этносоциального состава коренных народов Туркестана / М. Абдурахмонов // История и культура народов Евразии: прошлое, настоящее, будущее: материалы Междунар. науч.-практ. конф., посвящ. 120-летию со дня рождения видного ученого-тюрколога и общественного деятеля Ахмет-Заки Валиди Тогана, 21 мая 2010 г., Стамбул. - Уфа, 2010. - 4.1. - С. 82-85., Зохийидов А. Заки Валиди Тугай - исследователь / А. Зохийидов // Материалы научной конференции, посвященной 100-летию со дня рождения Заки Валиди Тугана (Ахметзаки Ахметшаховича Валидова), 20-21 дек. 1990 г., Турдиев Ш. Бўлинггани бўри ер. — Тошкент. «Адолат», 1997., Турдиев Ш. Улар Германияда ўқиган эдилар. Тошкент 2006., Шигабдинов Р Некоторые материалы из архивов Республики Узбекистан, связанные с деятельностью Ахметзаки Валиди Тогана / Р Шигабдинов // Ватандаш. - 2001. - № 9. - С. 62-63., Шигабудинов Р. Неизвестные страницы наследия А.Валиди. // O'zbekiston tarhi. 2000. №1-2. – С.57-70., Шигабдинов Р. // Асырлар авазы. Эхо веков. – Казань. – 1999. № 2. – С. 189., Шигабудинов Р. Ахмет Заки Валиди и идея автономии Туркестана / Туркистон мустақиллиги ва бирилиги учун кураш саҳифаларидан. – Т.: 1996. – С.33-39., Хусаинова Г. А. –З Валиди Тоган // Ватандаш. 2000. №12., Ишбердина Г.Н. Социально-философские основания мировоззрения А.-З.Валидова: Автореф. дис... канд. филос. наук. – Уфа, 2001., Мадраимов А. А. Спор о происхождении рода Амира Тимура: [по исследованиям З. В. Тогана] / А. А. Мадраимов // История и культура народов Евразии: прошлое, настоящее, будущее: материалы Междунар. науч.-практ. конф., посвящ. 120-летию со дня рождения видного ученого-тюрколога и общественного деятеля Ахмет-Заки Валиди Тогана, 21 мая 2010 г., Стамбул. - Уфа, 2010. - Ч. 1. - С. 165-170., Мадримов А. **История эпохи Амира Темура и Темуридов в научном наследии в. в. Бартольда и А. З. Валидова.** Тарих фанлари бўйича фалсаф доктори (PhD) Диссертацияси Тошкент-2020. Хўжаев М. Аҳмад Заки

Валидийнинг диний-фалсафий таълимоти. Фалсафа фанлари бўйича фалсаф доктори (PhD) Диссертацияси Тошкент-2020., Хужаев М. И. Философские взгляды А.-З. Валидова / М. И. Хужаев // История и культура народов Евразии: прошлое, настоящее, будущее: материалы Междунар. науч.-практ. конф., посвящ. 120-летию со дня рождения видного ученого-тюрколога и общественного деятеля Ахмет-Заки Валиди Тогана, 21 мая 2010 г., Стамбул. - Уфа, 2010. - Ч. 1. - С. 190-193.